

Boltaboyev Yursunali Mamadaliyevich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur davlatining tashkil topishi, qonunchiligi, tashqi siyosati va diplomatiyasi, davlat va harbiy boshqaruvda tutgan siyosati hamda strategiyasi doirasidagi ayrim masalalar tahlil etilgan. Shu bilan birga, maqolada Temuriylarning xalqaro munosabatlarni tashkil etishi, yagona markazlashgan siyosiy tartibni yo'lga qo'yish doirasida olib borgan islohotlari yoritilgan. Maqola fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarimizda buyuk bobokalonimizning deyarli butun Osiyo mintaqasida olib borgan siyosati, uning davlatniadolatli idora etish borasidagi mahoratidan o'rnak olgan holda, buyuk ajdodimiz shon-shavkatini ko'z o'ngimizda yana bir qadar yuksaltirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Temur tuzuklari, Movarounnahr, harbiy faoliyat, davlat, boshqaruv, iqtisod,adolat, diplomatiya, siyosat.*

Xalqaro munosabatlarda Amir Temur davlatining rolini ko'rib chiqar ekanmiz, davlat, davlatchilik mohiyatida muayyan bir makon va jamiyatda mavjud turli imkoniyatlarni shu yerlik xalq manfaati yo'lida yuzaga chiqaruvchi tashkilotchilik yotganini eslatib o'tish g'oyatda muhimdir. Zero, davlat asoslari, davlatchilik har bir jamiyat va xalq “boshiga bir marta bitilgan bo'ladi”. Shu ma'noda o'zbek davlatchiligi miloddan avvalgi 1-mingyllikning birinchi yarmidan o'z tarixini boshlab to Amir Temur davlatimiz tepasiga kelgunga qadar deyarli 2100 yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgandi. Bu ulkan davr ichida davlatimiz boshqaruviga turli sulolalar kelib ketdi. Ularning faoliyati turli zamonlarda, turli ob'ektiv-sub'ektiv shart-sharoitlarda turlicha kechdi.

XIV asrning 50- 60- yillarda Movarounnahrda feodal tarqoqlik g'oyatda kuchayib, sinfiy kurash yanada keskinlashadi. Mamlakatdagi har bir viloyat alohida hukmdorlikka ajralib, ular o'rtasida nizo kuchayib ketadi va qonli urushlarga aylanadi. Siyosiy parokandalik o'zaro urush va janjallar iqtisodiy tanglikka sabab bo'lib, mamlakat aholisini, ayniqsa dehqonlar xo'jaligini xonavayron qilgan edi. Buning ustiga Sharqiy Turkiston va Yettisuvda tashkil topgan Mug'iliston amirlari Movarounnahrni bosib olishga harakat qilardilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar.

Mo'g'iliston amirlarining vayronagarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketadi. Mug'llar istibdodi va zulmga qarshi xalq harakati boshlanadi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, Mug'llar zulmiga qarshi

mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda qisqa vaqt ichida katta imperiyani vujudga keltirgan sohibqiron Amir Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarni qo'ydi.

XIV asrnning 60- yillarida Movarounnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib ketadi. Feodal tarqoqlikning kuchayishi, ichki o'zaro urushlarning uzlucksiz davom etishi va tashqi dushman hujumlarining avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari zARBaga uchrab, aholi og'ir tanglikni boshidan kechirmoqda edi. Bundan savdogarlar, hunarmandlar

va dehqonlar g'oyatda norozi edilar. Aholining bunday tabaqalari orasida mavjud og'ir ahvoldan qutulish, mamlakatni birlashtirish va kuchli bir davlat tashkil etish harakati kuchayadi.

Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u o'z faoliyatining dastlabki boskichida barcha harakatni Movarounnahrda markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratadi. Bunday maqsadni amalga oshirishda u ruhoniylar bilan bir qatorda shaharning savdogar

va hunarmand tabaqalariga suyanadi. Bu boradagi amaliy ishni Balx shahriga joylashib olgan raqibi Husaynga qarshi yurishdan boshlaydi. 1370- yilda Temur yaxshi quroolangan qo'shini bilan Balxni qamal qiladi va katta talafotlar berib, shaharni egallaydi. Movarounnahrning hukmdori Amir Husayn o'ldiriladi.

Bu voqealardan so'ng mamlakatda Temurning siyosiy mavqeい kuchayib ketadi. Chunki endi Movaraunnahrda uning uchun kuchli raqib qolmagan edi.

Shu yili Balxda qo'shin boshliqlarining yig'ilgan qurultoyida Temurning hukmronligi rasman qaror topadi. Manbalarda ta'riflanishicha, qurultoyda avvalgi Chig'atoy xonligining e'tiborli amirlari, Temurning yoshlikdagi quroldoshlari

va uning sobiq dushmanlari hozir bo'lgan edilar.

Ular orasida Amir Shayx Muhammad Bayon sulduz, Amir O'ljaoytu,

Amir Kayxisrov huttaloniy, Amir Dovud dug'lot, Amir Sorbug'o jaloyir,

Amir Joku barlos, Amir Zinda Chashm va boshqa yetakchi arboblar bor edi. Xerman Vamberining ta'riflashicha, Temur qadimgi turk odatiga binoan oq kigiz ustiga o'tqazilib, yuqori ko'tariladi. Temurning piri Sayyid Baraka duysi fotiha qilgach, u Movarounnahrning egasi - amiri deb e'lon qilinadi.

Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib olgach, Temur o'z davlatini siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga kirishadi. Avvalambor bu davrda Temurga mustahkam poytaxt - bebos mahalliy hukmdorlarning hujumlariga qarshi tura oladigan bir qarorgoh zarur edi. Shu maqsadda u 1370- yilda

Samarqandga keladi. Bu yerda u shahar devorlari, qal'alar va saroylar bino qilishga kirishadi.

Bu imoratlar Samarqand mug'ullar tomonidan vayron etilgandan keyin

150 yil o'tgach bиринчи мarta бунyод qilingan umumjumhuriy inshootlar edi. So'ngra u holdan toygan mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etadi. To'g'ri, deyarli bir asrlik boshboshdoqlik hukm surgan mamlakatda qonunlar joriy etib, tartib o'rnatish oson ish emas edi. Uni oz-ozdan amalga oshirish mumkin edi. Shuning uchun ham Temur o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus harbiy qism tashkil qiladi. Chunki bunday ishonchli harbiy kuch uning siyosiy kurashlari uchun zarur edi. Shuning uchun ham u bu harbiy qismga va barlos qabilasiga katta imtiyozlar beradi.

Tashqaridan qaraganda Temur qonunlarni joriy etish bilan band ko'rinsa-da, lekin o'z davlati chsgaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Avval

u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, shuningdek, Farg'ona va Shoshni birlashtirib, ularni o'ziga bo'ysundiradi.

Ammo Mug'iliston tomonidan bo'ladigan xavf hali tamoman sindirilmagan edi. Temur davlati uchun Jo'ji ulusida qad ko'targan Oltin O'rda nihoyatda xavfli edi. Temur sultanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm yerlaridan Qo'ng'iroq so'filarining davlati qaror topgan edi. Qadimdan iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan Movarounnahr bilan yaqindan aloqada bo'lgan Xorazm mug'ullar davrida ikki qismga bo'linib, markazi Urganch shahri bo'lgan Shimoliy Xorazm Oltin O'rdaga, markazi Kat qal'asi bo'lgan Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusiga qaragan. XIV asrning 60- yillari oxirida Oltin O'rdada yuz bergen g'alayonlar vaqtida Qo'ng'iroq so'filari Shimoliy Xorazmda yangi sulolaning mustaqil hukmronligini tiklab oladilar. So'ngra Kat va Xiva shaharlarini bosib olib, Shimoliy Xorazm bilan Janubiy Xorazm yerlarini birlashtiradilar. Temur butun Xorazmni Chig'atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblar edi. Shuning uchun u Xorazmni bosib olish siyosatini tutdi. 1372- yilda Temur Xorazmga hujum qildi. Biroq xorazmliklar mag'lubiyatga uchragan bo'salar-da, Temurga qarshi bir necha bor bosh ko'tardilar. Shuning uchun ham Temur Xorazmga besh marta yurish qilishga majbur bo'ldi. Nihoyat 1388- yilda u Xorazmni butunlay qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ladi. Uning oxirgi yurishi oqibatida Urganch shahri vayron etilib, shahar aholisi esa Samarqandga ko'chiriladi.

Shunday qilib, Temur Movarounnahr va Xorazmda feodal tarqoqligiga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtirdi. Bu shubhasiz, Movarounnahr xalqlari taqdirida ijobiya ahamiyat kasb etdi. Ammo

Temurning harakati bu bilan cheklanmadi. U tez orada qo'shni davlatlar va xalklar ustiga yurish qilib, ularni o'z davlati hududiga birlashtirish va markazlashgan ulkan sultanat barpo etishni oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Temur davlati va uning hukmdorlik davri zamondoshlarining e'tiborinigina o'ziga jalg etib qolmay, balki jahon siyosiy doiralarida yuz bergan barcha voqealarga ham ta'sir ko'rsatdi. Bunday vogelik Temurning G'arbgaga tomon „etti yillik" yurishlari davrida (1399-1404- yillar) qudratli usmonli turklari imperiyasiga qarshi urush boshlashga qadar qilgan vaqtidan boshlab yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Yaqin Sharqda sodir bo'lgan murakkab siyosiy vaziyat buni jiddiy taqozo qilardi. Ma'lumki, bu davrda bir tomondan harbiy qudrati tobora oshib borayotgan Turkiyaning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu qudratli davlatning o'zi G'arbgaga tomon shiddat bilan bosib kelayotgan raqib - Temur davlatining kuchli tazyig'iga duchor bo'lgan edi.

Shunday qilib, Kichik Osiyoda ikki istilochining - o'sha vaqtida o'z harbiy qudrati jihatidan eng yuksalgan Temur bilan G'arbiy Yevropaga dahshat solib turgan Boyazidning manfaatlari duch keladi. Bunday siyosiy vaziyatda Turkiyaga qarshi vujudga kelgan dushman kuchlarining ma'lum darajada birlashushi tabiiy edi. Avvalambor, Boyaziddan yengilib, o'z yer va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining amirlari Temurdan madad istab, uning Qorabog'dagi o'rdugohiga borib qaror topadilar. Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli, hamda Sultoniyshahrining katolik missionerlari yordam so'rab Temurga murojaat qiladilar. Turkiya sultoni Boyazidga birlashib zarba berish maqsadida Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann VII Paleolog va Genuyaning Peradagi (Konstantinopol atrofidagi mavze) hokimi Trapezund imperatori Manuil III vositasida Temurni Turkiyaga qarshi yurish boshlashga undaydilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish, hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Temurga to'lashga va'da qiladilar. Bunday taklif shubhasiz, Temurga juda maqbul tushadi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Turkiya sultoni Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Temur ustalik bilan foydalananadi.

Bu davrda Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, Turkiya bilan bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venesiyyaga sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan

arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchiligidan elchilar yuboradi. O‘zaro yordam masalasida Temur Konstantinopol noibi Ioann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Temurning 1402- yil 15 may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo’llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol imperatori

va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Temurga xizmat qilish, hatto unga "odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 tagacha harbiy kemalar bilan" yordam berish kabi majburiyatni o‘z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o‘z kundalik daftarida qayd qilib o‘tadi.

Bu davrda Temur Fransiya koroli Karl VI (1360-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) va Kastiliya hamda Leon qiroli Genrix III Trastamara (1390-1407)lar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida Fransiya Vizantiya taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulkclarini, ayniqsa G‘alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga urinar edi. Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, sohibqiron qirolni jiddiy qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, Temurning Kichik Osiyo va G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borgan dastlabki diplomatik yozishmalari va elchilik aloqalari uning G‘arbgan-Turkiya ustiga yurishi munosabati bilan boshlanib, ulardan asosan Boyazidga qarshi birgalikda kurashish rejalari ko‘zda tutiladi. Biroq Anqara yaqinida turklarning ikki yuz minglik qo‘smini ustidan qozonilgan buyuk g‘alabadan so‘ng Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan bo‘lgan aloqalarining mazmuni tubdan o‘zgaradi. Endilikda u ular bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash, elchilik va o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish kabi masalalarga ahamiyat beradi. Vizantiya imparatoridan boj olib, uni bilvosita bo‘ysundirish bilan kifoyalangan Temur 1402- yil yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilik yuboradi.

Elchilikka zamonasining mohir diplomati Arxiepiskop Ioann Galonifontibus boshchilik qiladi. Ioann orqali Temur Karl VI va Genrix IV nomlariga maxsus maktublar yo’lladi. Elchilar Parijiga 1403- yil mayda yetib boradilar. Bu yerda Ioann tantanali vaziyatda Temurning Turkiya ustidan qozongan g‘alabasi, Sulton Boyazidning asirga olingani, turklar asir olgan xristianlarning ozod qilingani to‘g‘risida xabar berar ekan, ikki mamlakatning savdogarlari uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta‘minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo‘lsalar, bu erkin savdoni tegishli bitim yoki shartnoma bilan mustahkamlashni taklif etadi. Buning uchun avvalambor muntazam o‘zaro elchilik aloqalarining barqarorligi lozim edi. Shuning uchun ham Temur 1402- yil avgustda Fransiya

qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida bu haqda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: "Bundan keyin sizning (odamlaringiz) bizning yerlarimizga va bizning (kishilarimiz) sizning o'lkangizga o'tgan ajdodlarimiz davridagidek borib-kelib tursalar, sizning va bizning nomimizni hamma joyda olqishlab tursalar, mamlakatimiz savdogarlari uchun foyda keltirishsa, ko'p xursand bo'lar edik. Shuni ham aytish kerakki, endilikda bizning yurtimizda savdogarlaringizning xavfsizligi ta'minlanadi". Fransiya qiroli Karl VIning

1403- yil 15- iyunida Temurga yo'llagan javob maktubidan ma'lum bo'lishicha, Temur takliflari Fransiya tomonidan mammuniyat bilan qabul qilingan.

Demak, Temurning Anqara jangidan keyin fransuz qiroli bilan olib borgan yozishmalari, o'zaro savdo shartnomasi tuzishga qaratilgan diplomatik yozishma bo'lib, bunda Vatikan vakili Arxiepiskop Ioann Galonifontibus muhim rol o'ynagan. Chunki unga fransuz qiroli Karl VI ning javob xatini Temurga yetkazishdek mas'uliyat yuklangan edi.

Temur davlati bilan Angliya o'rtasida o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatilishiha ham Vatikan vakilining vositachilik roli katta bo'ldi. Xuddi shu davrda u bu buyuk davlatning g'arbiy viloyatlari hokimi Mironshoh (1366-1408) bilan Angliya koroli Genrix IV o'rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalarda, ayniqsa faol qatnashdi. 1393- yilda Shimoliy Eron, Iroq, Tabriz va Sultoniyani o'z ichiga olgan xulogular tasarrufidagi mulklarga hokim qilib tayin etilgan Mironshoh Temurning keksayib qolgan davrida G'arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayriyohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu sababli G'arbda Mironshoh tez orada "katolik dinining homiysi sifatida" shuhrat qozonadi.

Temur, Mironshoh va Genrix IVlarning o'zaro diplomatik yozishmalaridan ma'lum bo'lishicha, Angliya bilan elchilik aloqalarini o'rnatib, savdo-sotiqni jonlantirish yo'lida olib borilgan harakatlarda, ayniqsa Mironshohning tashabbusi katta bo'lgan. Bu tabiiy hol bo'lib, buyuk Temur imperiyasining G'arbiy davlatlar bilan olib borgan aloqalari - xoh u elchilar qatnovi, xoh savdo karvonlari bo'lmasin, dastavval Mironshoh tasarrufidagi o'lkalar orqali o'tar edi. Bundan avvalo ushbu viloyatlarning noibi manfaatdor edi. Chunki Mironshoh qo'l ostidagi mulklarning g'arbiy chegaralari Yevropaning Bolqon yarim oroli orqali O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan tutashgan edi. Angliya qiroli 1403 yilning o'rtalarida Temur va Mironshohga yo'llagan javob maktublarida ular bilan shartnama tuzish istagini izhor etadi va shu maqsadda Angliyaning ahvoli hamda shart-

sharoitlaridan yaxshi xabardor bo'lgan Arxiepiskop Ioanni vakil qilib tayinlab, unga to'la ishonch bildiradi. Angliya qiroli Genrix IV 1403- yil 15- iyunda Temurga yozgan javob maktubida "o'zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, davlatlarimiz savdogarlarining bir-birlari bilan ilgari, ajdodlarimiz davrida bo'lganidek uchrashib turishlarini ta'minlash niyatidamiz" deb ta'kidlagan edi.

Misr va Turkiya sultonlari ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Temur G'arbiy Yevropada yanada keng shuhrat qozondi. Yevropa mustabidlarining Sharqqa bo'lgan azaliy qiziqishi va intilishi yanada kuchaydi. Ayniqsa Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda ham qiziqib qolgan edi. U Temurning Turkiya sultoni Boyazidga qarshi olib borgan shiddatli jangu jadallarini diqqat bilan kuzatib boradi.

1402- yilning bahorida Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasuelos boshchiligida dastlab Ispaniya elchilari Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboriladi. Elchilarga Temur va Boyazidlarning kuch-qudrati, boyligi va armiyasining adadini bilish hamda ular qo'l ostida yashayotgan xalqlarning urf-odatlari dini va qonunlari haqida aniq ma'lumotlar toplash topshiriladi. G'alaba munosabati bilan tashrif buyurgan Sharq va G'arbning ko'pgina davlatlari elchilari qatorida Ispaniya elchilari ham Temur tomonidan qabul qilinib, qiro nomiga yozilgan maxsus maktub va in'omlar bilan kuzatiladi. Ularga qo'shib Temur Muhammadqozi ismli o'z vakilini ham Ispaniyaga elchi qilib yuboradi. Bunga javoban Genrix III o'zaro do'stlik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida 1403- yilda Temur huzurida ikkinchi marta maxsus elchilik yuboradi. Unga Rui Gonzales de Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. 1403- yil 21- mayda Ispaniyadan jo'nab ketgan elchilar dengiz orqali Konstantinopolga o'tib, u yerdan Trapezundga, bu yerdan quruqlik orqali Eronni kesib o'tib Balxga yetib kelishadi. Bu shahar yaqinida Amudaryodan kechib o'tib, avval Termiz va Kesh shaharlarida bo'lishadi, so'ngra Samarqandga tashrif buyurishadi. Ispaniya elchilari Samarqandda Temur tomonidan tantanavor qabul qilinib, ularga katta e'tibor va zo'r hurmat ko'rsatiladi. Temurning Samarqand va uning atrofida bino qildirgan hashamatli saroy

va bog'larida o'tkazilgan rasmiy qabul va tantanali marosimlarda Ispaniya elchilari Xitoy, Hindiston, Rum, Zobuliston, Iroq, Shom, Misr, Oltin O'rda, Saqlab (Russiya) kabi Sharq va G'arbning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan elchilarning barchasidan ham yuqoriyoqqa o'tqazilib, ularga alohida e'tibor beriladi. Rasmiy qabul vaqtida Ispaniya elchilari "Xitoy podshosining elchisidan pastroqda o'tirganini ko'rib qolgan Temur, - deb yozgan edi bu haqda Klavixo o'z kundaligida,- ularga to'rga, Xitoy elchisini esa pastroqqa o'tqazishni buyurdi". O'rta asr diplomatiyasida bunday rasmiyatchilikka alohida e'tibor berilgan.

Chunki rasmiy qabul va tantanali marosimlarda elchilar uchun belgilangan maxsus joylar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning ramziy darajasini ko‘rsatar edi.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404- yilning sentyabr-noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar. Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan boshqa ko‘pgina davlatlarning elchilari bilan bir qatorda Ispaniya elchilari ham 1404- yilning 21- noyabrida Samarqanddan jo‘natib yuboriladi. Klavixo Ispaniyaga 1406- yilning mart oyida qaytib keladi. Oradan bir oy o‘tgach, Klavixo Samarqand safarida bo‘lgan Ispaniya elchiligi haqidagi axborotni yozib Kastiliya qiroli Genrix IIIga topshiradi. Keyinchalik uning bu axborotnomasi "Buyuk Temur tarixi" va "Temur qarorgohi Samarqandga saforot kundaligi" nomlari ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi. Temur vafotidan so‘ng mamlakatda boshlangan siyosiy boshboshdoqlik va uning bir qancha mustaqil davlatlarga bo‘linib ketishi oqibatida G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan Temurning o‘rnatgan bevosita savdo

va elchilik aloqalari asta-sekin susayib, keyinchalik esa butunlay uziladi. Bu, shubhasiz, O‘rta Osiyoning G‘arbiy Yevropa va unda shakllanayotgan jahon tashqi bozoridan ajralib, O‘rta Osiyoliklarning dunyo xalqlarining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotidan chetda qolishining boshlanishi edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur deyarli butun Osiyo mintaqasida 40 yil davomida olib borgan siyosati davrida o‘zini mohir davlat arbobi sifatida namoyon eta olgan tarixiy shaxsdir. Uning adolatga yo‘g‘rilgan davlatni idora etish borasidagi mahorati esa, nafaqat yurtimiz tarixchilarinig, balki xorijiy mamlakatlar olimlarining ham e’tiborini hanuzgacha o‘ziga jalg qilib kelmoqda. Bu esa, fuqarolramizda buyuk ajdodimiz shon-shavkatini ko‘z o‘ngimizda yana bir qadar yuksaltiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo‘lavversin. Asarlar, 4 - jild. - T.: O‘zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. Amir Temur - faxrimiz, g‘ururimiz. Asarlar, 5 - jild. - T.: O‘zbekiston, 1997.
3. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. - T.: Sharq, 2000. -B. 151 - 234.
4. S.A. Vdovina Amir Temur v mirovoy istorii. Izd.: "Shark" - Toshkent, 1996.
5. S.A. Akramov Buyuk o‘zbek olimi Ulug‘bek. - T.: 1961.
6. B.Ahmedov Ulug‘bek. - T.: Kamalak, 1994.

7. B.Ahmedov Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994. - B.105-130; 299-316; 316-328.
8. B.Ahmedov Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy siyosiy faoliyati). - T.: 1996.
9. H.Vamberi Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. - T.: G'ofur G'ulom, 1990.
10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2 - jildlik. - T.: Mehnat, 1992.
11. Lyus'en Keren. Amir Temur sultanati. - T.: Ma'naviyat, 1999.
12. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2001.
13. Mustaqillik: Izohli ilmiy - ommabop lug'at. - T.: Sharq, 2006.
14. A. Muhammadjonov Temur va temuriylar davri. - T.: Fan, 1996.
15. A.Sagdullaev va boshqa. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. - T.: Akademiya, 2000. - B. 128 - 145.
16. Temur tuzuklari. Forschadan A.Sog'uniy va H.Karomatov tarjimasi. - T.: 1996.
17. Q.Usmonov, M.Sodiqov, N.Oblomurodov O'zbekiston tarixi. I qism. O'quv qo'llanma. - T.: 2002. - B. 171 - 193.
18. M.Xolbekov Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari. - Samarqand: 1996.
19. O'zbekiston tarixi (Qisqacha ma'lumotnoma). - T.: Sharq, 2000. - B. 87 - 111.
20. O'zbekiston tarixi / R.Murtazaeva umumiyl tahriri ostida. -T.: Yangi asr avlod, 2003. -B. 268 - 298.
21. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1,2,3 ... - 12 jildlar.
22. Sharofiddin Yazdiy. Zafarnoma. - T.: Sharq, 1997.
23. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. - T.: 2006. - B.164-185.
24. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. K.1 / Mas'ul muharrir: A. Sagdullayev. - T.: Sharq, 2010. - B. 338-485.